Bugungi kunda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bozor iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, investorlar ishonchini mustahkamlash, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, shuningdek, xo'jalik jamiyatlari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Ayniqsa aksiyadorlik jamiyatlari, davlat ishtirokidagi korxonalarida boshqaruv organlari faoliyatini samarali nazorat qilish, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish hamda minoritar aksiyadorlar huquqlarini kafolatlash korporativ boshqaruv institutining amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Korporativ boshqaruv kodeksi mazkur jarayonda muhim tartibga solish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. U kompaniya boshqaruv organlarining vakolatlari, hisobdorligi, axborotni oshkor qilish tartibi, aksiyadorlar bilan munosabatlar va manfaatlar muvozanatini ta'minlashga qaratilgan ilg'or boshqaruv standartlarini belgilaydi. Shu bilan birga, mazkur kodeksning huquqiy tabiati ya'ni uni majburiy normativ-huquqiy hujjat sifatida qabul qilish yoki *soft law* (tavsiyaviy qoida) instrumenti

sifatida saqlab qolish masalasi ilmiy-amaliy jihatdan dolzarbdir.

O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy qismini mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etadi, aksiyadorlik jamiyatlari esa umumiy tijorat tashkilotlari tarkibida juda kichik ulushga ega. Shunday sharoitda barcha xo'jalik jamiyatlari uchun korporativ boshqaruv kodeksini majburiy normativ-huquqiy hujjat sifatida joriy etish ortiqcha komplayens xarajatlari, qog'ozbozlik va byurokratik to'siqlarni kuchaytirishi mumkin.

Maqolaning aniq maqsadi va yechilishi lozim bo'lgan masalani asoslash. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi korporativ boshqaruv kodeksini O'zbekiston Respublikasida alohida normativ-huquqiy hujjat sifatida qabul qilishning maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada quyidagi masalalarni yechish nazarda tutiladi:

birinchidan, korporativ boshqaruvning nazariy asoslari, xususan, agentlik nazariyasi va manfaatdor tomonlar nazariyasi asosida korporativ boshqaruv kodeksining mazmuni va vazifasi ochib beriladi;

ikkinchidan, korporativ boshqaruv kodeksining *ex-ante* nazorat mexanizmi sifatidagi roli tahlil qilinadi. Bunda kodeksning boshqaruv organlari faoliyatini oldindan tartibga solish, shaffoflikni kuchaytirish va manfaatlar to'qnashuvining oldini olishdagi funksiyasi ko'rib chiqiladi;

uchinchidan, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va OECD davlatlari tajribasi asosida korporativ boshqaruv kodeksining majburiy yoki tavsiyaviy huquqiy tabiatga ega bo'lishi masalasi qiyosiy tahlil qilinadi.

Korporativ boshqaruv muammolari bo'yicha ilmiy adabiyotlarda bir nechta asosiy yondashuvlar shakllangan. Maqolada avvalo agentlik nazariyasi asosiy nazariy mezonlardan biri sifatida tahlil qilingan. F. Fama (1980) kabi mualliflar korporativ boshqaruvdagi asosiy muammoni mulkdorlar va boshqaruvchilar manfaatlari o'rtasidagi tafovut bilan bog'laydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, direktorlar jamiyat mulkdorlari manfaatida harakat qilishi lozim bo'lsa-da, amaliyotda ular o'z lavozimidan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanishi mumkin. Axborot nomuvofiqligi (assimetriyasi) va nazoratning sustligi esa agentlik xarajatlarini yuzaga keltirishi mumkin.

Manfaatdor tomonlar nazariyasi esa korporatsiyani faqat aksiyadorlar manfaatiga xizmat qiluvchi institut sifatida emas, balki xodimlar, kreditorlar, mijozlar, yetkazib beruvchilar, mahalliy hamjamiyat va atrof-muhit manfaatlarini ham hisobga olishi lozim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy institut sifatida talqin qiladi. Gulyamov (2004), Blair va Stout (2001) kabi olimlarning yondashuvlarida korporativ boshqaruvda manfaatlar muvozanati, direktorlar hisobdorligi va kuzatuv kengashning vositachilik funksiyasi muhim o'rin tutadi.

Milliy adabiyotlarda J. Yuldashev (2024), O'. Xolmirzayev va I. Saidovlar (2025) korporativ boshqaruv, direktorlar majburiyatlari, sun'iy intellektning korporativ boshqaruvga ta'siri, mulk va boshqaruv ajralishi, shuningdek, boshqaruv organlari javobgarligi masalalarini tadqiq qilgan. Mazkur ilmiy ishlarda korporativ boshqaruvni faqat normativ talablar orqali emas, balki hisobdorlik, shaffoflik, manfaatlar muvozanati va samarali nazorat mexanizmlari orqali rivojlantirish zarurligi ko'rsatib berilgan.

Tadqiqotda dastlab korporativ boshqaruvning nazariy asoslari o'rganildi. Bunda agentlik

nazariyasi orqali direktorlar va aksiyadorlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi, axborot assimetriyasi, agentlik xarajatlari va boshqaruv organlari ustidan nazorat masalalari tahlil qilindi. Shuningdek, manfaatdor tomonlar nazariyasi asosida korporatsiya faoliyatida nafaqat aksiyadorlar, balki boshqa manfaatdor guruhlar manfaatlarini ham inobatga olish zarurligi yoritildi.

Keyingi bosqichda xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilindi. AQSH tajribasi orqali korporativ boshqaruvning yagona kodeksga emas, balki federal qonunlar, shtat korporativ qonunchiligi, SEC (Securities and Exchange Commission) qoidolari va fond birjalari listing talablariga tayanagan modeli o'rganildi.

Tadqiqotda doktrinal, qiyosiy-huquqiy, tizimli, funksional metodlar qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari korporativ boshqaruv kodeksining huquqiy tabiati turli davlatlarda turlicha shakllanganligini ko'rsatadi. Masalan, AQSH-da korporativ boshqaruv yagona kodeks orqali emas, balki shtat korporativ qonunchiligi, federal qonunlar, SEC qoidolari va fond birjalari talablari orqali tartibga solinadi. Bu modelda asosiy boshqaruv talablarining muhim qismi bevosita majburiy normalar orqali belgilanadi, ammo Yevropa davlatlaridagi kabi yagona korporativ boshqaruv kodeksi mavjud emas.

Buyuk Britaniya tajribasi esa, korporativ boshqaruv kodeksining moslashuvchan *soft law* instrumenti sifatida samarali ishlashi mumkinligini ko'rsatadi. Mazkur modelda kompaniyalar kodeks qoidalariga amal qilishi yoki ulardan chetga chiqish sabablarini tushuntirishi kerak. Bu yondashuv korporativ boshqaruvni qattiq va bir xil standartlarga bog'lab qo'ymaydi, balki kompaniyalarning hajmi, faoliyat sohasi va biznes modeli xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

O'zbekiston bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, mamlakatda korporativ boshqaruvning asosiy huquqiy bazasi allaqachon mavjud. Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunchilik, qimmatli qog'ozlar bozori qoidolari, axborotni oshkor qilish tartibi, hukumat qarorlari va Markaziy bank nizomlari korporativ boshqaruvning asosiy elementlarini tartibga soladi. Korporativ boshqaruv kodeksi esa ushbu tizimni to'ldiruvchi, tavsiyaviy va ilg'or boshqaruv standartlarini ifodalovchi hujjat sifatida amal qilmoqda.

Tadqiqotning asosiy ilmiy natijasi shundan iboratki, korporativ boshqaruv kodeksini alohida normativ-huquqiy hujjat sifatida qabul qilish O'zbekiston sharoitida maqbul tartibga solish modeli sifatida baholanmaydi. Bunday yondashuv kodeksning asl mohiyatini, ya'ni moslashuvchan, tavsiyaviy xarakterdagi xususiyatini susaytiradi.

Amaliy natija sifatida quyidagi xulosalar asoslanadi:

birinchidan, korporativ boshqaruv kodeksiga normativ-huquqiy hujjat maqomini berish uni umummajburiy davlat ko'rsatmasiga aylantiradi. Bu esa kodeks qoidalariga rioya qilmaganlik uchun moliyaviy, ma'muriy yoki boshqa huquqiy javobgarlik yuzaga kelishi ehtimolini kuchaytiradi.

ikkinchidan, kodeksni majburiy tusga kiritish kompaniyalar uchun qo'shimcha komplayens xarajatlarini oshiradi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari, mas'uliyati cheklangan jamiyalar va oilaviy korxonalar uchun bunday talablar iqtisodiy jihatdan og'ir yuk bo'lishi mumkin.

Asosiy qism

Butun dunyoda, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti rivojlangan AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi davlatlarda korporativ boshqaruv iqtisodiyotni rivojlantirish, biznes muhitini yaxshilash, investorlar ishonchini mustahkamlash, minoritar ishtirokchilar (aksiyadorlar) huquqlarini kafolatlash, shaffoflik va hisobdorlik risklarini kamaytirishga qaratilgan markaziy instituti hisoblanadi.

Korporativ boshqaruv nazariyalari kompaniya faoliyatini tashkil etish va uni boshqarishning konseptual asoslarini belgilab beruvchi muhim ilmiy yondashuvlar majmuasini tashkil etadi. Ushbu nazariyalar, avvalo, kompaniyada direktorlar kimlarning manfaatida qaror qabul qilishi, ushbu qarorlar ustidan nazorat qanday amalga oshirilishi lozimligini tushuntirishga qaratilgan.

Ushbu savollarga javob berishga qaratilgan ikki asosiy nazariya korporativ boshqaruvning asosini tashkil qiladi. Bular: agentlik nazariyasi (*agency theory*) va manfaatdor tomonlar (*stakeholder theory*) nazariyalari bo'lib, ushbu nazariyalar kompaniya boshqaruv organlari vakolatlari, nazorat mexanizmlari hamda manfaatlar muvozanatini ta'minlash bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi boshqaruv modellarini taklif etadi.

Agentlik nazariyasiga ko'ra, direktorlarga ulushdor (*principal*) larning ko'rsatmalarini baja-

ruvchi ishonchli vakil (*agent*)lar sifatida qaraladi. Ular faqat ulushdorlar manfaatlariga xizmat qilishlari kerakligi ta'kidlanadi (Yuldashev, 2024, p. 168).

Biroq amaliyotda direktorlar har doim ham ulushdorlarning sodiq vakillari sifatida harakat qilishmaydi. Amalda, ular ko'pincha o'z shaxsiy manfaatlarini ko'zlash uchun katta erkinlikka ega hisoblanadi. Shu sababli ulushdorlar direktorlarni samarali tarzda nazorat qilishda qiyinchilikka duch keladilar. Chunki direktorlarni kuzatib borish ko'p vaqt, resurs talab qiladi. Bu holat agentlik xarajati (*agency costs*) deb ataladi (Saidov, 2025, p. 37).

Keyingi asosiy nazariya bo'lgan manfaatdor tomonlar (*stakeholder theory*) nazariyasi ko'ra esa, korporatsiyalar faqatgina ulushdorlar manfaatlarini emas, balki barcha manfaatdor tomonlar, jumladan, xodimlar, mijozlar, yetkazib beruvchilar va atrof-muhit manfaatlarini inobatga olishlari kerakligini ta'kidlaydi (Gulyamov, 2004).

Nazariyaning muhim jihati shundaki, u korporatsiyalarni faqat qiymat yaratish bilan cheklanib qolmasligi kerakligini, balki yaratilgan qiymatni manfaatdor tomonlarga adolatli tarzda taqsimlash muhimligini urg'ulaydi. Bu yondashuv korporatsiyalar va ularning manfaatdor tomonlari o'rtasidagi sadoqat va barqaror munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Qiymatni adolatli taqsimlash korporatsiyalarni ko'proq mas'uliyatli va jamoatchilik oldida hisobdor bo'lishga majbur qiladi. Bu esa korporatsiyalar va ularning manfaatdorlarining umumiy manfaatlarini yanada yaxshilashga yordam beradi (Blair & Stout, 2001).

Har ikkala nazariyada ham boshqaruv organlarining jamiyat va uning ishtirokchilari oldidagi hisobdorligini kuchaytirish, jamiyat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida korporativ boshqaruv kodeksi *ex-ante* nazorat mexanizmi sifatida muhim rol o'ynaydi (European Commission, 2012).

Korporativ boshqaruv kodeksi bilan bog'liq xorijiy tajriba:

a) Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasi. Shuni ta'kidlash kerakki, Amerika Qo'shma Shtatlari korporativ boshqaruv tizimi Yevropa va boshqa davlatlardagi korporativ boshqaruv tizimidan tubdan farq qiladi. AQSH korporativ boshqaruvida aksiyadorlar ko'pligi natijasida ular tarqoq holda (*dispersed*) bo'lib, ularning korporativ

boshqaruv organlari ustidan nazoratni amalga oshirishi ham biroz sust amalga oshadi. Bu esa boshqaruv organlari, xususan, kuzatuv kengashi a'zolari va direktorlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi va kompaniya mulklarini o'zlashtirish holatlarini ko'payishiga olib keladi (Coffee, 2005, p. 202). Shu sababli AQSHda XX asrdagi eng yirik iqtisodiy inqirozlar va korporatsiyalar tanazzulini ko'rish mumkin (Corporate Finance Institute, 2020).

Shuni e'tiborga olish kerakki, AQSHda yagona bir korporativ boshqaruv kodeksi mavjud emas. Aksincha, mazkur davlatda korporativ boshqaruvga oid talablarga turli qonunlar va me'yoriy hujjatlar orqali rioya etiladi. Masalan, kompaniyalar faoliyatini asosan shtatlarning korporativ qonunlari (eng ko'p Delavare shtati qonunchiligi) tartibga soldi (Delaware General Corporation Law, Del. Code Ann. tit. 8, § 101 et seq, 2026). Bunga qo'shimcha ravishda, federal darajada 2002-yilda qabul qilingan *Sarbanes-Oxley Act* hamda 2010 yilda *Dodd-Frank Act* kabi qonunlar moliyaviy hisobot, ichki nazorat, audit qo'mitasining mustaqilligi kabi qator korporativ boshqaruv elementlarini majburiy tartibda joriy qilgan. AQSH qimmatli qog'ozlar bozori komissiyasi (SEC) qoidalari (U.S Securities and Exchange Commission, Rules and Regulations) va fond birjalari (NYSE, NASDAQ) listing talablari ham korporativ boshqaruv standartlarini o'rnatadi. AQSH korporativ boshqaruvi qonunchiligining o'ziga xos yondashuvi bu muhim boshqaruv tamoyillarini bevosita qonun va majburiy qoidalar orqali amalga oshirish hisoblanadi. Shuning uchun AQSHda Yevropa davlatlarida bo'lganidek alohida "Korporativ boshqaruv kodeksi" mavjud emas;

b) Buyuk Britaniya tajribasi. Buyuk Britaniya korporativ boshqaruv tizimining o'ziga xosligi shundaki, korporativ boshqaruvni tartibga solishda "qattiq qonunlar" (*hard law*) bilan birga "yumshoq qonunlar" (*soft law*) va bozor intizomi muhim rol o'ynaydi. "Qattiq qonun" sifatida Kompaniyalar to'g'risidagi qonun (United Kingdom Parliament, 2006) va boshqa maxsus qonunlar direktor va boshqaruv organlari hisobdorligi va javobgarligini *ex-post* nazorat mexanizmi sifatida tartibga solsa, korporativ boshqaruv kodeksi "yumshoq qonun" sifatida *ex-ante* nazorat mexanizmi sifatida muhim rol o'ynaydi (Financial Reporting Council, 2024).

Buyuk Britaniya korporativ boshqaruv kodeksi "yumshoq qonun" sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, unga amal qilish barcha listing (aksiyalari fond bozorida sotiladigan) kompaniyalar uchun majburiy hisoblanadi (Gower et al., 2021, pp. 9-20). Faqatgina kodeksning ishlash mexanizmi *comply or explain* (rioya qil yoki tushuntir) tartibida ishlaydi. Ya'ni listing kompaniyalar kodeksdagi barcha qoidalarga to'liq amal qilishi shart bo'lmay, balki o'zlariga mos kelmaydigan qoidalarga nimaga amal qilmasliklarini tushuntirishlari kerak bo'ladi. Ushbu yondashuvning nazariy ustunligi shundaki, u korporativ boshqaruvni bir xil "qattiq" standartga majburlamasdan, korxonalar o'lchami, biznes modeli va sektor xususiyatlaridan kelib chiqib moslashuvchan boshqaruv dizaynini tanlash imkonini beradi;

d) Germaniya tajribasi. Yevropa davlatlari, xususan, Germaniya korporativ boshqaruvining AQSH va Buyuk Britaniya korporativ boshqaruvidan asosiy farqi, bu kompaniya aksiyadorlarining jamlangan (*consentred*) ekanligi hisoblanadi. Ya'ni Germaniya kompaniyalardagi aksiyalar minglab aksiyadorlarga tegishli bo'lmay, balki bir nechta oilalarga tegishli bo'lib, unda korporativ nazorat ham yirik aksiyadorlar tomonidan amalga oshiriladi (Coffee, 2005, p. 202). Natijada korporativ boshqaruvga oid qoidalar ko'proq zaif tomon bo'lgan minoritar aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish qaratilgan bo'lib, majoritar aksiyadorlarning minoritar aksiyadorlar huquqlarini poymol qilishlarini oldini olishga asosiy e'tibor berilgan (Kraakman et al., 2017, p. 80).

Germaniya korporativ boshqaruv tizimida Korporativ boshqaruv kodeksi (Deutscher Corporate Governance Kodex) ham "qattiq qonun" bo'lmasdan, balki birjalarda ro'yxatga olingan aksiyadorlik jamiyatlari uchun eng yaxshi amaliyot standartlarini jamlaydigan "yumshoq qonun" instrumentdir. Uning real ta'siri shundaki, kodeks tavsiyalariga rioya etish ixtiyoriy ko'rinsa-da, ro'yxatga olingan kompaniyalar uchun har yili majburiy rioya qilindi yoki chetga chiqildi mazmunidagi deklaratsiya (Entsprechenserklärung) berish talabi orqali amalda kuchli intizomga aylanadi (161-modda) (Federal Republic of Germany, 1965).

Korporativ boshqaruv kodeksining majburiyligi bilan bog'liq amaliyot tahlili. Jahon amaliyotida korporativ boshqaruv tizimini majburiy shaklda amalga oshirish bir qancha salbiy oqi-

batlarga olib kelganligi, natijada o'sha davlatning investitsion jozibadorligi pasayganligi holatlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, AQSHda 2002-yilda *Sarbanes-Oxley Act* qabul qilinib, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirish uchun yangi majburiy talablar kiritilganidan so'ng, ko'plab xorijiy kompaniyalar o'z biznesini Nyu-York fond birjasidan London fond birjasiga o'tkazganligini ko'rishimiz mumkin (Doidge et al., 2010).

Yoki Hindistonda 2013-yilda kompaniyalar akti qabul qilinishi va korporativ boshqaruvda majburiy talablarni joriy etilishi ortidan jiddiy muammolarning vujudga kelishi, natijada esa boshqaruv sifati yaxshilanishi maqsad qilingan bo'lsa-da, amaliyotda kompaniyalar uchun rioya qilish (komplayns) xarajatlari oshganligi, kichik va o'rta biznes uchun talablar og'irlik qilganligi, korporativ boshqaruv ko'p hollarda qog'ozda bajarish darajasida qolib ketganligini ko'rish mumkin. (Dharmapala & Khanna, 2018)

Yoki Janubiy Koreyada 1997-yilda hukumat va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) talablari asosida majburiy korporativ boshqaruv qoidalari joriy etilgan. Jumladan, boshqaruvda mustaqil direktorlar va audit qo'mitalarini majburiy joriy etish, moliyaviy hisobotlarda shaffoflikni oshirish, xalqaro buxgalteriya standartlariga o'tish, guruh ichidagi o'zaro kafolatlar va qarzlarni cheklash qoidalari shaffoflik va investorlar ishonchini oshirgan bo'lsa-da, ayrim salbiy jihatlar ham yuzaga kelgan (Black et al., 2015)

O'zbekiston Respublikasida Korporativ boshqaruv kodeksining amal qilish doirasi. O'zbekistonda korporativ boshqaruvning huquqiy asosi bir qator normativ hujjatlardan iborat. Eng avvalo, 2014-yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun aksiyadorlar huquqlari, kuzatuv kengashi va ijro organlari vakolatlarini belgilab beradi. Shuningdek, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonunlar axborotni oshkor qilish majburiyatlari hamda bozor tartibotlarini belgilaydi. 2015-yilda O'zbekiston korporativ boshqaruv tizimini xalqaro amaliyotga muvofiq rivojlantirish maqsadida maxsus Hukumat komissiyasi tomonidan Korporativ boshqaruv kodeksi tasdiqlanib, aksiyadorlik jamiyatlari uchun tavsiya etildi (President of Republic of Uzbekistan, 2015). Ushbu Kodeks rioya qil yoki izohla tamoyi-

li asosida ixtiyoriy qo'llanilishi belgilangan bo'lib, u korxonalar faoliyatida zamonaviy boshqaruv prinsiplarini joriy etish bo'yicha ko'rsatmalar beradi (State Assets Management Agency of the Republic of Uzbekistan, n.d).

Shuningdek, korporativ boshqaruvda normativ bazani to'ldiruvchi hujjat sifatida Vazirlar Mahkamasi qarorlari muhim o'rin tutadi. Jumladan, aksiyadorlik jamiyatlari rasmiy veb-saytlarida majburiy axborotlarni joylashtirish tartibi ilk bor Vazirlar Mahkamasining qarori bilan joriy etilgan (Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, 2014). Shuningdek, Markaziy bank tomonidan tijorat banklari uchun korporativ boshqaruv nizomlari qabul qilingan (Central Bank of the Republic of Uzbekistan, 2020). Umuuman olganda, milliy qonunchilik aksiyadorlar huquqlari va organlar faoliyatini tartibga soluvchi normalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ilg'or boshqaruv tamoyillari esa alohida kodeks tarzida tavsiya sifatida taqdim etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hisob-kitoblariga asosan 2025-yil 1-dekabr holatiga mamlakatda jami 405,5 mingta tijorat tashkiloti faoliyat yuritib, ularning 318,3 ming tasi (78,5 %) mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hissasiga to'g'ri keladi. Qolgan qismi esa xususiy korxonalar (46 996 ta, 11,6 %), oilaviy korxonalar (36 292 ta, 8,9 %), aksiyadorlik jamiyatlari (639 ta, 0,2 %)dan iborat bo'lib, mazkur ma'lumotlar MChJlar O'zbekiston iqtisodiyotida ustun tashkiliy-huquqiy shakl ekanini yaqqol ko'rsatadi (Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan, 2025)

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turli tashkiliy-huquqiy shakldagi xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari (to'liq shirkat, komandit shirkat, aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlari) rioya qilishi majburiy bo'lgan korporativ boshqaruv kodeksini alohida normativ huquqiy hujjat shaklida qabul qilinishi bozor munosabatlarida xo'jalik jamiyatlari uchun ortiqcha byurokratik to'siqlar va xarajat yuklamasini vujudga keltiradi.

Shu sababli quyidagi asoslarga ko'ra, korporativ boshqaruv kodeksini alohida normativ huquqiy hujjat shaklida qabul qilinishi tavsiya qilinmaydi:

birinchidan, korporativ boshqaruv kodeksi normativ-huquqiy hujjat sifatida qabul qilinsa, u

umummajburiy davlat ko'rsatmasi maqomiga ega rasmiy hujjatga aylanadi;

ikkinchidan, normativ-huquqiy talablarni bajar-maganlik korporativ boshqaruv subyektlari uchun davlat oldida moliyaviy, ma'muriy, jinoiy yoki bosh-qqa turdagi javobgarlikni keltirib chiqaradi;

uchinchidan, iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'rgangan 52 ta davlatning 80 foizidan ortig'ida korporativ boshqaruv kodeksi majburiy bo'lmay, *comply or explain* (rioya qil yoki tushuntir) tamoyiliga asoslangan *soft law* (ixtiyoriy) shaklida qo'llaniladi;

to'rtinchidan, kodeksni majburiy joriy etgan davlatlar tajribasida kompaniyalarning rioya qilish (komplayens) xarajatlari oshgani, mustaqil direktorlar roli formal tus olgani, korporativ boshqaruv ayrim hollarda faqat rasmiyatchilik darajasida qolib ketgani kuzatilgan;

beshinchidan, korporativ boshqaruvda majburiy normalarning joriy etilishi natijasida ayrim davlatlarda iqtisodiy salbiy oqibatlar yuzaga kelgan, xususan, biznes subyektlari o'z faoliyatini qulayroq huquqiy muhitga ega boshqa davlatlar-ga ko'chirishni afzal ko'rgan.

REFERENCES

- Black, B. S., Kim, W., & Jang, H. (2015). How corporate governance reforms in Korea affected firm value. *Journal of Law, Economics, and Organization*, 31(3), 477–512.
- Blair, M., & Stout, L. (2001). Director accountability and the mediating role of the corporate board. *Washington University Law Quarterly*, 79, 403–447.
- Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (2014). *Resolution "On measures to further improve the corporate governance system in joint-stock companies" (No. 176)*. Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-2420411>
- Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2020). *Registration "On approval of the regulation on corporate governance in commercial banks" (No. 3254)*. Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-4888804>
- Coffee, J. C. (2005). A theory of corporate scandals: Why the USA and Europe differ. *Oxford Review of Economic Policy*, 21(2), 198–211.
- Corporate Finance Institute. (2020). *Enron scandal: A series of financial wrongdoings that led to the collapse of Enron Corporation in 2001*. <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/esg/enron-scandal>
- Delaware General Corporation Law, Del. Code Ann. tit. 8, § 101 et seq. (2026). <https://delcode.delaware.gov/title8/c001/>
- Dharmapala, D., & Khanna, V. (2018). The impact of mandated corporate social responsibility: Evidence from India's Companies Act of 2013. *International Review of Law and Economics*, 56, 92–104.
- Doidge, C., Karolyi, G. A., & Stulz, R. M. (2010). Why do foreign firms leave U.S. equity markets? *The Journal of Finance*, 65(4), 1507–1553.
- European Commission. (2012). *Action plan: European company law and corporate governance—A modern legal framework for more engaged shareholders and sustainable companies (COM(2012) 740 final)*. European Commission.
- Fama, E. F. (1980). Agency problems and the theory of the firm. *Journal of Political Economy*, 88(2), 288–307.
- Federal Republic of Germany, Government Commission on the German Corporate Governance Code. (2022). *German Corporate Governance Code*. <https://www.dcgk.de/en/code.html>
- Federal Republic of Germany. (1965). *German Stock Corporation Act*. https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_aktg/index.html
- Financial Reporting Council. (2024). *The UK Corporate Governance Code 2024*. Financial Reporting Council.
- Gower, L. C. B., Davies, P. L., & Worthington, S. (2021). *Gower and Davies' principles of modern company law* (11th ed.). Sweet & Maxwell.
- Gulyamov, S. S. (2004). *Pravovye problemy korporativnogo upravleniya: teoriya i praktika [Legal Problems of Corporate Governance: Theory and Practice]*. TSIL Publ.
- Kraakman, R., Armour, J., Davies, P., Enriques, L., Hansmann, H., Hertig, G., Hopt, K., Kanda, H., Pargendler, M., Ringe, W.-G., & Rock, E. (2017). *The anatomy of corporate law: A comparative and functional approach* (3rd ed.). Oxford University Press.
- Nasdaq. (n.d.). *Market regulation*. <https://www.nasdaq.com/market-regulation>

- New York Stock Exchange. (n.d.). *Regulation*. <https://www.nyse.com/regulation>
- OECD. (2025). *OECD Corporate Governance Factbook 2025*. OECD Publ. <https://doi.org/10.1787/f4f43735-en>
- President of Republic of Uzbekistan. (2015). *Decree "On measures for the introduction of modern corporate governance methods in joint-stock companies" (No. DP-4720)*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-2635197>
- Saidov, I. (2023). The phenomenon of separation of ownership and control in corporate law. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 5(1), 1–9.
- Saidov, I. (2025). *Xo'jalik jamiyatlarida direktor majburiyatlari doirasini belgilashning qiyosiy-huquqiy tahlili [Comparative Legal Analysis of Determining the Scope of Directors' Duties in Business Companies]* (Doctoral dissertation). Tashkent State University of Law.
- State Assets Management Agency of the Republic of Uzbekistan. (n.d.). *Kodeks korporativnogo upravleniya [Corporate Governance Code]*. <https://davaktiv.uz/ru/menu/kodeks-korporativnogo-upravleniya>
- Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan. (2025). *O'zbekistonda 318,3 mingta MChJ faoliyat yuritmoqda [318.3 thousand LLCs are operating in Uzbekistan]*. <https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/65700-zbekistonda-318-3-mingta-mchzh-faoliyat-yuritmo-da-4>
- U.S. Securities and Exchange Commission. (n.d.). *Rules and regulations*. <https://www.sec.gov/rules-regulations>
- United Kingdom Parliament. (2006). *Companies Act 2006 (c. 46)*. The National Archives. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2006/46/contents>
- Yuldashev, J. I. (2024). *Korporativ boshqaruvda sun'iy intellektidan foydalanishni huquqiy tartibga solish [Legal regulation of the use of artificial intelligence in corporate governance]* (Abstract of doctoral dissertation). Tashkent State University of Law.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 3-SON

VOLUME 6 / ISSUE 3 / 2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.3>.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence>